

**TIBBIY XODIMLARNING KASBHUQUQBUZARLIKLARI BILAN
BOG'LIQ KOMISSION SUD-TIBBIY EKSPERTIZALARNI
TAKOMILLASHIRISHNING AYRIM MASALALARI**

<https://doi.org/10.2471/zenodo.20142574>

**Giyasov Zaynitdin Asamutdinovich
Hakimov Sarvar Abduazimovich**

TDTU 1-son Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi kafedrası professor, t.f.d.

TDTU 1-son Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi kafedrası dotsent, PhD.

Annotatsiya

Maqolada tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarliklari yuzasidan o'tkazilgan komission sud-tibbiy ekspertizalar materiallari bo'yicha ekspertizani tayinlash jarayonida ekspertlar komissiyasini shakllantirish, ekspertizaga taqdim etiladigan ob'ektlar hamda ekspertlar komissiyasi oldiga qo'yiladigan savollar bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlari

sud-tibbiy ekspertiza, tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarliklari

Аннотация

В статье по материалам комиссионных судебных экспертиз в случаях профессиональных правонарушений медицинских работников анализированы вопросы, связанные с формированием экспертной комиссии, объектами, предоставляемые в распоряжение экспертизы и постановкой вопросов перед экспертной комиссией.

Ключевые слова

судебно-медицинская экспертиза, профессиональные правонарушения медицинских работников

Abstract

In this paper on materials of commission forensic examinations in cases of professional violation of the law of medical workers it was analyzed which issues associated with development of expert commission, institutions presenting to examination and arrangement of issues for expert commission.

Keywords

forensic medical examination, professional offenses of medical workers

Fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan kafolatgan (1). Binobarin, mamlakatning sog'liqni saqlash tizimida o'tkazilayotgan islohotning asosiy yo'nalishlaridan biri aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilashdir. Shu sababli so'nggi yillarda tibbiy yordamning sifatli hamda o'z vaqtida ko'rsatilishiga nisbatan talab va nazoratning ancha kuchayganganligini ta'kidlash joiz (6,7).

Sud-tibbiy ekspertiza muassasalari sog'liqni saqlash tizimiga kiradi va sud, tergov, surishtiruv idoralarining talabiga muvofiq ekspertizalar o'tkazish bilan bir qatorda, ular sud-tibbiy ekspertiza materiallari bo'yicha aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ham olib borishi lozim. Bu borada tibbiy xodimlarning kasbiy faoliyatini baholash yuzasidan o'tkaziladigan komission sud-tibbiy ekspertizalar (KSTE) o'ziga xos o'rin tutadi (8).

Mazkur KSTElar murakkab, mehnattalab ekspertizalar qatoriga kiradi va ularning natijalari tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarliklari (TXKH) yuzasidan jinoiy ishlarni tergov qilish va ko'rib chiqishda, xususan tibbiy faoliyatdagi nuqsonlarga huquqiy baho berishda muhim ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda TXKH bo'yicha o'tkazilgan KSTE soni bir necha marta ortganini e'tirof qilish kerak.

TXKH holatlarida KSTE O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi, "Sud ekspertizasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlar (Yo'riqnoma, tegishli qoidalar, standartlar) talablariga rioya qilingan holda o'tkaziladi (2,3,4,5). Ayni paytda bu turdagi ekspertizalarni tayinlash, tashkillashtirish va o'tkazishda ma'lum bir muammolar borligini qayd etish lozim.

Umuman olganda, sud ekspertizasi bilan bog'liq jarayonda quyidagi uch davrni farqlasa bo'ladi:

- preekspertiza -sud ekspertizasini tayinlashga tayyogarlik ko'rish davri;
- sud ekspertizasining o'tkazilish davri;
- postekspertiza - ekspert xulosasini tahlil qilish va baholash davri.

Birinchi davr asosan ekspertiza tayinlayotgan shaxsning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, sud ekspertizasi, shu jumladan KSTening to'laqon, ishonchli, samarali bo'lishi hamda ekspertizaning optimal muddatda bajarilishini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir.

Shulardan kelib chiqqan holda mazkur ishda TXKH yuzasidan o'tkazilgan KSTE larning tahliliga asosan bu turdagi ekspertizalarni tayinlash va tashkillashtirish bilan bog'liq ayrim masalalar o'rganildi.

Qonun hujjatlariga muvofiq sud ekspertizasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudyaning qarori, sudning ajrimiga asosan o'tkaziladi. Qaror yoki ajrimda qanday ekspertiza tayinlangan, uning ijrosi kimga yuklangan, ekspertiza

oldiga qo'yilgan savollar hamda ekspertizaga taqdim etilayotgan materiallar, ashyoviy dalillar va boshqa ob'ektlar ko'rsatiladi.

Amaldagi qoidalarga binoan TXKH bilan bog'liq KSTElarda ekspertlar komissiyasi tarkibiga ko'rib chiqilayotgan sohaning tegishli klinitsist mutaxassislari kiritilishi lozim. Ayrim holatlarda ishning mohiyatidankelib chiqqan holda bir necha sohalarning qator mutaxassislarini ekspertizaga jalb etish zarurati tug'iladi. Zero, ekspertiza tayinlayotgan shaxs uning ijrosi yuklanayotgan ekspertni yoki ekspertlar tarkibini, shu jumladan ekspertizaga jalb qilinadigan klinitsist mutaxassisni belgilash vakolatiga egadir. Ammo KSTE larni o'tkazish amaliyotining tahlili ko'rsatadiki, ekspertiza tayinlagan shaxslar bu huquqdan amalda foydalanmayapti va ekspert komissiyasini tuzish, unga zarur mutaxassislarni jalb etish sud-tibbiy ekspertiza muassasasi rahbari tomonidan amalga oshirilayapti.

"Sud ekspertizasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq davlat sud-ekspertiza muassasi rahbari sud ekspertizasini o'tkazish uchun mazkur tashkilotda ishlamaydigan shaxslarni mustaqil ravishda jalb etishga haqli emas (3). Shu sababli ekspertlar komissiyasini shakllantirish, uning tarkibiga zarur bo'lgan soha vakillarini sud eksperti yoki mutaxassis tarzida jalb etish vakolati davlat sud-tibbiy ekspertiza muassasasi rahbarining zimmasiga yuklanishi KSTEni tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimda albatta qayd etilishi lozim.

TXKH bo'yicha KSTE tahlili natijalari ayrim holatlarda ekspertiza tayinlagan shaxs tomonidan ekspertlar komissiyasi ixtiyoriga materiallarni taqdim etilishida ma'lum bir kamchiliklar mavjudligini qo'rsatdi. Ayrim holatlarda taqdim etilgan materiallar noto'liq bo'lib, keyinchalik ekspertizaning ijro jarayonida ekspertlar komissiyasining talabnomasi bo'yicha yetishmagan materiallarning yetkazilishi KSTE ijro muddatining cho'zilishiga olib kelmoqda.

Komission ekspertizalarni o'tkazish qoidalari bo'yicha tibbiy faoliyatni baholash bo'yicha KSTElarda qaror yoki ajrim bilan quyidagi materiallar, ob'ektlar taqdim etilishi zarur:

- ko'rsatilgan tibbiy yordamni aks ettiruvchi barcha tibbiy hujjatlarning (kasallik tarixi, ambulatoriya kartasi, tez tibbiy yordam chaqiruv kartasi, rentgenogramma, tomogramma va boshqalar) asl nusxalari (istisno tarzida belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalardan foydalanishga yo'l qo'yiladi);

- jarrohlik muolajalarida olingan ichki a'zo va to'qimalarning makro-va mikropreparatlari, ularning tekshiruv natijalari bilan;

- o'lim bilan tugagan holatlarda murdaning patogo-anatomik yoki sud-tibbiy tekshiruv natijalari, ushbu tekshiruvda olingan biologik arxiv materiallari bilan;

- muassasalarga tibbiy faoliyat olib borish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya), tibbiy xodimlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlarning (yo'riqnoma, nizom va boshqalar) nusxalari;

- faoliyati baholanayotgan tibbiy xodimning ma'lumoti, ish staji, ixtisosligi bo'yicha malaka oshirishi, malaka toifasi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni va boshqa ma'lumotlarni aks ettiruvchi tavsifnoma;

- gumondor (ayblanuvchi, sudlanuvchi) tibbiy xodimlarning, jabrlanuvchi, guvohlarning ko'rib chiqilayotgan holat yuzasidan so'roq bayonnomalari.

Ma'lumki, tibbiy muolajalardan so'ng vujudga kelgan noxush oqibatlar, tibbiy faoliyatga nisbatan e'tiroz, shikoyatlar bo'lgan holatlarning aksariyatida KSTE tayinlangunga qadar turli xizmat tekshiruvlari o'tkaziladi. Ushbu tekshiruvlar jarayonida sog'liqni saqlash idoralari va muassasalari komissiyalari tomonidan ko'rsatilgan tibbiy yordamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilinadi hamda xizmat tekshiruvlari natijalariga asosan tegishli chora-tadbirlar ko'riladi. Shu sababli tibbiy yordam va unda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni baholashdagi uzviylik va izchillikni ta'minlash maqsadida ekspertlar komissiyasi ixtiyoriga mazkur holat yuzasidan o'tkazilgan barcha xizmat tekshiruvlari materiallari (ma'lumotnomalar, muhokama bayonnomalari va boshqalar) taqdim etilishi zarur.

KSTEning samaradorligini ta'minlashda ekspertlar komissiyasi oldiga qo'yiladigan vazifalarning to'g'ri va to'liq bo'lishi ahamiyatlidir. Afsuski, fyrim holatlarda qaror yoki ajrimda keltirilgan savollar talabga javob bermaydi. Zero, KSTE tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimda keltirilgan savollar ekspertlar komissiyasi vakolati doirasida, voqea tafsilotiga mos, aniq bo'lishi kerak.

Ushbu savollar huquqbuzarlikning nafaqat ob'ekti va ob'ektiv tomoni, balki uning sub'ektiv tomoniga ham oydinlik kiritishga yo'naltiriladi. Jumladan, bemorda qanday patologik holat (kasallik, travma) mavjud bo'lgan va oqibatda vujudga kelgan ziyonning mohiyati va og'irlik darajasi; tibbiy yordam ko'rsatishda yo'l qo'yilgan kamchilikning mohiyati, qanday qoida, standart yoki boshqa me'yorlar talablari buzilgan; tibbiy yordamdagi nuqson hamda vujudga kelgan ziyon o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishining mavjudligi va bunday bog'lanishning turi (bevosita yoki bilvosita); lozim darajadagi tibbiy yordam ko'rsatilganda ushbu patologik holatning oqibati qandan bo'lishi va bemorda vujudga kelgan ziyonning oldini olish imkoniyati; kamchilikka yo'l qo'ygan tibbiy xodimning ma'lumoti, ixtisosi, ish tajribasi va malakasini inobatga olganda, bemorga lozim bo'lgan yordamni ko'rsatish va vujudga kelgan noxush oqibatni oldindan ko'ra bilish imkoniyatini aniqlashga doir savollar ekspertlar komissiyasi yechimiga qo'yilishi lozim.

Albatta, tibbiy faoliyatdagi har bir holat o'zicha xos bo'lib, boshqa hodisalardan farqlanadi. TXKH bilan bog'liq KSTE larga doir andoza savollar majmuasini tayyorlash qiyin. Shu sababli ekspertizani tayinlashga tayyorgarlik ko'rish davrida ekspertiza oldiga qo'yiladigan savollar hamda taqdim etiladigan materiallar yuzasidan sud tibbiyoti sohasidagi mutaxassislaridan tegishli maslahat yordamini olish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilganda, TXKH bilan bog'liq KSTE tayinlash jarayonida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf qilish ushbu ekspertizalarning takomillashuvi hamda ekspertlar xulosasining to'laqon, asoslangan va samarali bo'lishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси
3. "Суд экспертизаси тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Қонуни
4. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг суд-тиббий экспертиза муассасаларида суд-тиббийёт экспертизаларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги йўриқнома. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг 2011 йил 25 июлдаги 227-сон буйруғига илова.
5. Қайта, комиссия ва комплекс экспертизаларни ўтказиш қоидалари. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг 2012 йил 1 июндаги 153-сон буйруғи, 8- илова.
6. Асадов Д.А., Сафаева К.С., Менликулов П.Р., Ходжаева Н.Д. - Цели развития тысячелетия: национальные приоритеты в здравоохранении Узбекистана. - Медицинский журнал Узбекистана, 2006, 3, с.8-14.
7. Саидова Г.К., Асадов Д.А., Сафаева К.С. - Основные направления современного этапа реформ в здравоохранении Узбекистана. - Медицинский журнал Узбекистана, 2007, 3, с.2-8.
8. Томилин В.В., Соседко Ю.И. - Судебно-медицинская оценка дефектов оказания медицинской помощи в учреждениях здравоохранения Российской Федерации. - Судебно-медицинская экспертиза. 2000, 1, с. 3-7.